

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrasiga katta o‘qituvchisi, i.f.n. R.T.Kudratovning 70310101 Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi magistrlari uchun “Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi” fanidan “Korxonalarni strategik rivojlanishida xodimlar va mehnat motivatsiyasi tizimi” mavzusidagi ochiq ma’ruza mashg‘ulot darsi ishlanmasiga**

## **TAQRIZ**

Jamiyatda yuzaga keladigan iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo‘lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan korxonalarni zamonaviy, innovatsion bozor tamoyillari asosidagi strategiyalarini mazmun- mohiyatini tushunish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni berishda “Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi” fanining roli beqiyosdir.

Bugungi kunda boshqaruvchilar innovatsion taraqqiyotning global o‘zgarishlariga, jumladan ijtimoiy, texnologik va iqtisodiy tarkibiy o‘zgarishlariga to‘qnash kelmoqdalar. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy samaradorlilagini oshirishda xodimlar mehnat motivatsiyasini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Ma’ruza mashg‘uloti ishlanmasi “Korxonalarni strategik rivojlanishida xodimlar va mehnat motivatsiyasi tizimi” mavzusida tayyorlangan bo‘lib, ma’ruza mashg‘uloti ishlanmasida korxonalarni strategik rivojlantirish sharoitida korxona xodimlari mehnat motivatsiyasini tashkil etish tizimi va shakllari, mehnat samaradorligini oshirishda mehnat motivatsiyasining o‘rni, mehnat motivatsiyasini tashkil etish orqali korxona personalini ijodiy salohiyatini yuksaltirish yo‘nalishlari bilan bog‘liq jarayonlar yoritilgan bo‘lib ularning mohiyati ochib berilgan. Ma’ruzada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil fikrlash, o‘z fikrini himoya qila olish, jamoa bo‘lib ishlash ko’nikmalarini shaklantiruvchi topshiriqlar ham berilgan. Ma’ruza mashg‘ulot rejasi fan mavzusi mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, rejada qo‘yilgan savollar bo‘yicha ma’ruza yetarlicha yoritilgan.

Ushbu ochiq ma’ruza mashg‘ulot dars ishlanmasi 70310101 Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi magistrlari uchun mo‘ljallangan va fanning o‘quv rejasi asosida tayyorlanganligini hisobga olib, talabalarga ochiq ma’ruza mashg‘ulot darsini o‘tish jarayonida foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

**ТДИУ СФ " Бухгалтерия хисоби,  
солик ва молия" кафедраси доценти**

**Холмурзаев М.**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Iqtisodiyot” fakulteti “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, i.f.n. Rizo Kudratovning 70310101 Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim mutaxassisligi magistrleri uchun “Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi” fanidan “Korxonalarni strategik rivojlanishida xodimlar va mehnat motivatsiyasi tizimi” mavzusidagi ochiq ma’ruza mashg‘ulot darsi ishlanmasiga**

## **TAQRIZ**

Zamonaviy sharoitlarda xodimlar mehnatni rag'batlantirishni o'rganishda boshqaruv jarayonida inson - boshqaruvning bosh subyektidir. Inson qobiliyati uning jismoniy va bilim imkoniyatlari bilan belgilanadi. Bu imkoniyatlar bilan birga mehnat sharoiti hamda ishlashga tayyorgarlik samaradorhkni ta'minlaydi. Ishlashga tayyorlik esa shaxsning ishga qiziqishi va undan qanoatlanishi, ehtiyojlari, mehnat natijalariga muvofiq rag'batlantirilishi bilan belgilanadi. Ishga qiziqishni tahlil etishda qiziqtirish omillari - ehtiyoj, qiziqish sabablari (motivlari) va rag'batiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Mehnatni rag'batlantirish - muayyan, oldindan belgilab qo'yilgan natijalarga erishish imkonini beradigan jo'shqin mehnat faoliyati xodimning muhim ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, unda mehnatga qiziqishni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ko'zda tutadi.

Katta o‘qituvchi, i.f.n. R.T.Kudratov tomonidan tayyorlangan ochiq ma’ruza mashg‘ulot dars ishlanmasi ochiq dars o‘tkazish uslubiyati va talablariga mos ravishda tuzilgan bo‘lib, aniq qo'yilgan reja asosida mavzu yoritilgan. Xususan, ushbu ishlanmada mavzuga doir savollar bilan birgalikda, mavzu bo‘yicha ta’lim texnologiyasi, texnologik xarita, mavzuni yanada mukammal o‘zlashtirib olish uchun adabiyotlar o‘z aksini topgan.

R.Kudratov tomonidan tayyorlangan ochiq ma’ruza mashg‘ulot dars ishlanmasi 70310101 Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta’lim mutaxassisligi magistrlariga mo‘ljallanganligi hamda “Korxonalarni rivojlantirish strategiyasi” fanining o‘quv dasturi asosida tayyorlanganligini hisobga olib, ochiq ma’ruza mashg‘ulot darsida foydalanishini maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

**“Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi”  
kafedrasi dotsenti, i.f.n.**

**Salomov I.S.**